



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
XODIMLARINING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

ISSN. 3060-4982

№ 2 (9) 2026



INSON KAPITALI VA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH

**ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL**



TOSHKENT - 2026

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI**

**KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
XODIMLARINING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

ISSN. 3060–4982

№ 2 (9), 2026

**"INSON KAPITALI VA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH"
ILMIY–AMALIY ELEKTRON
JURNAL**

**"ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И ОХРАНА ТРУДА"
НАУЧНО–ПРАКТИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ
ЖУРНАЛ**

**"HUMAN CAPITAL AND OCCUPATIONAL SAFETY"
SCIENTIFIC AND PRACTICAL ELECTRONIC
JOURNAL**

TOSHKENT – 2026

*Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarining malakasini oshirish markazi
"Inson kapitali va mehnatni muhofaza qilish" ilmiy-amaliy elektron jurnal*

Bosh muharrir:
Raxmonov Abduxalil Xomidovich
Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarining malakasini oshirish markazi direktori

Bosh muharrir o'rinbosari:
Nurmamatova Rahima Rahmanovna
Texnika fanlari doktori (DSc), professor – Mehnatni muhofaza qilish kafedrasi mudiri

Mas'ul kotiblar:
Qadirov Ulug'bek Baxtiyorovich,
T.f.f.d., (PhD), dotsent
To'xtaboyev Xayrullo Nosirovich
S.f.f.d., (PhD), dotsent

Texnik muharrir:
Atabayev Sirojiddin Oybekovich,
Amirqulov Zuhridin Nuriddin o'g'li,

TAHRIRIYAT HAY'ATI RAISI:

Abdurahmonov Qalandar Xodjaevich – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, iqtisod fanlari doktori, professor. Toshkentdagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti filiali direktori.

TAHRIRIYAT HAY'ATI A'ZOLARI:

I.U.Madjidov – texnika fanlari doktori, professor; B.T.Ibragimov – texnika fanlari doktori (DSc), professor; B.H.Umurzaqov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor; A.A.Baxodirov – texnika fanlari doktori, professor; O.M.Yo'ldosheva – texnika fanlari doktori, professor; B.B.Xasanov – texnika fanlari doktori, professor; Sh.E.Kurbanbayev – texnika fanlari doktori, professor; R.I.Ismoilov – texnika fanlari doktori (DSc); B.N.Toshev – yuridik fanlari doktori, professor; M.S.Boltayev – yuridik fanlari doktori, professor; S.O'.Turdiyev – texnika fanlari falsafa doktori (PhD); F.N.Nurqulov – texnika fanlari doktori, professor; O.R.Yuldashev – texnika fanlari nomzodi, dotsent; A.A.Boboev – texnika fanlari falsafa doktori (PhD); A.X.Abdullayev – texnika fanlari falsafa doktori (PhD); O.A.Djurayev – texnika fanlari falsafa doktori (PhD); G.I.Ishmuradova – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent; Sh.B.Imomov – texnika fanlari falsafa doktori (PhD); X.G.Azimov – texnika fanlari falsafa doktori (PhD); Z.M.Sattorov – texnika fanlari nomzodi, professor; Sh.N.Xodjikulova – pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD); K.M.Mirzaaxmedov – Sotsiologiya fanlari doktori, (DSc), dotsent; G.B.Abdiyeva – texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent; R.X.Xodiyev – pedagogika fanlari falsafa doktori, (PhD), dotsent; M.A.Rahimov – yuridik fanlar falsafa doktori (PhD); R.M.Ismailova – texnika fanlari falsafa nomzodi;	B.S.Abdullaeva – pedagogika fanlari doktori, professor; Sh.A.Abdullaeva – pedagogika fanlari doktori, professor; Sh.A.Atadjanova – pedagogika fanlari doktori, dotsent; A.A.Xalikov – pedagogika fanlari doktori, professor; N.A.Muslimov – pedagogika fanlari doktori, professor; S.S.Bulatov – pedagogika fanlari doktori, professor; R.G.Isyanov – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent; A.B.Xayitov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor; O.A.Norboev – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent; L.F. Amirov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent; F.U. Mamarasulov – iqtisodiyot fanlari nomzodi; G.R.Madrahimova – yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori; M.I. Maxsadorov – yuridik fanlari doktori, dotsent; Z.U.Berdinazarov – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent; N.T.Shayusupova – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent; A.E.Jumagulov – yuridik fanlari falsafa doktori (PhD) M.E.Mamarajabov – pedagogika fanlari doktori, professor; S.B.G'oyipnazarov – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent; G.R.Madrahimova – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent. M.A.Ashurov – pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent; M.R. Doschanov – texnika fanlari falsafa doktori (PhD); A.A.Abdazimov – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; Sh.N.Xodjiqulova – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; J.G'. Rashidov – texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent; O'B. Shakarov – siyosiy fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent; S.T.Ruziyev – texnika fanlari falsafa doktori (PhD).
--	--

Jurnal ommaviy axborot vositasi sifatida O'zbekiston matbuot va axborot agentligida ro'yxatga olingan. Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi bo'yicha 104355– raqamli guvohnoma berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan innovatsiyalar vazirligi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024–yil 30–noyabrdagi 364/5–sonli qarori bilan texnika fanlari bo'yicha, OAK Rayosatining 2025–yil 4–yanvardagi 366/5–sonli qaroriga asosan, iqtisodiyot, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnalda maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida yiliga to'rt marotaba chop etiladi. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarining malakasini oshirish markazi, 2025. "Inson kapitali va mehnatni muhofaza qilish" ilmiy-amaliy elektron jurnal, 2025

3. 2024-yil 7-avgust, O‘RQ-938 O‘zbekiston Respublikasining “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni. // [https:// www. lex. uz](https://www.lex.uz).

4. 2018-yil 7-noyabr, PQ-4006 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // [https:// www. lex. uz](https://www.lex.uz).

5. 2010-yil 29-sentabr, O‘RQ-263 O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. // [https:// www. lex. uz](https://www.lex.uz).

6. 2004-yil 26-avgust, 660-II-son O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. // [https:// www. lex. uz](https://www.lex.uz).

7. 2021-yil 29-noyabr, PF-27 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // [https:// www. prezident. uz](https://www.prezident.uz).

8. 2017-yil 3-yanvar, O‘RQ-419 O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. // [https:// www. lex. uz](https://www.lex.uz).

9. 2021-yil 26-mart, PF-6196 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // [https:// www. prezident. uz](https://www.prezident.uz).



UO‘K 343.85(100)

XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATI TAJRIBASI

Kutlimuratov Maxmudjon Sharipbaevich.

(O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti)

Annotatsiya: mazkur ilmiy maqolada xorijiy davlatlarda huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishning huquqiy va institutsional asoslari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Germaniya, Buyuk Britaniya hamda Amerika Qo‘shma Shtatlarida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi, uning subyektlari, profilaktik choralarning turlari va zamonaviy mexanizmlari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida ushbu davlatlarda jamoatchilik bilan hamkorlik, huquqiy ma‘rifat, raqamli texnologiyalar, videokuzatuv tizimlari, “community policing” modeli hamda individual profilaktika institutlarining samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, milliy qonunchilik va xorijiy tajriba o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlanib, O‘zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan huquqbuzarlik tushunchasining nazariy mazmuni ham tahlil qilinib,

“g‘ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik” shaklidagi ta’rifni qo‘llash maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat xavfsizligi, qiyosiy-huquqiy tahlil, profilaktika subyektlari, community policing, individual profilaktika, huquqiy ma’rifat, videokuzatuv tizimi, jamoatchilik ishtiroki, viktimologiya, huquq-tartibot organlari, jinoyatchilikning oldini olish

Аннотация: в данной научной статье проведён сравнительно-правовой анализ правовых и институциональных основ организации профилактики правонарушений в зарубежных государствах. В частности, исследованы система предупреждения правонарушений, её субъекты, виды профилактических мер и современные механизмы их реализации в Российской Федерации, Республике Беларусь, Германии, Великобритании и Соединённых Штатах Америки. В ходе исследования раскрыта эффективность таких направлений, как взаимодействие с общественностью, правовое просвещение, использование цифровых технологий, системы видеонаблюдения, модель «community policing», а также институты индивидуальной профилактики. Кроме того, выявлены сходства и различия между национальным законодательством и зарубежным опытом, разработаны научно-практические предложения по совершенствованию профилактики правонарушений в Республике Узбекистан. Автором также рассмотрено теоретическое содержание понятия правонарушения и обоснована целесообразность применения определения в форме «противоправное действие или бездействие».

Ключевые слова: профилактика правонарушений, общественная безопасность, сравнительно-правовой анализ, субъекты профилактики, community policing, индивидуальная профилактика, правовое просвещение, система видеонаблюдения, участие общественности, виктимология, правоохранительные органы, предупреждение преступности

Abstract: this scientific article provides a comparative legal analysis of the legal and institutional foundations for organizing crime and offense prevention in foreign countries. In particular, the study examines the systems of crime prevention, their subjects, types of preventive measures, and modern mechanisms implemented in the Russian Federation, the Republic of Belarus, Germany, the United Kingdom, and the United States of America. The research highlights the effectiveness of public cooperation, legal education, digital technologies, video surveillance systems, the “community policing” model, and individual prevention institutions in these countries. Furthermore, the similarities and differences between national legislation and foreign practices are identified, and scientific-practical proposals are developed to improve the prevention of offenses in the Republic of Uzbekistan. The author also analyzes the theoretical content of the concept of an offense and substantiates the appropriateness of using the definition as an “unlawful act or omission.”

Keywords: prevention of offenses, public safety, comparative legal analysis, prevention subjects, community policing, individual prevention, legal education,

video surveillance system, public participation, victimology, law enforcement agencies, crime prevention

Ta’kidlab o’tishimiz joizki, mamlakatimizdagi har bir normativ hujjat, avvalambor, ushbu jamiyatda yashayotgan aholining yashash tarzi, mentaliteti, urf-odatlarini, hattoki, oiladagi tarbiya, odob-axloq qoidalarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur. Chunki har qanday qonunni ishlab chiqishda u o’zining kelajakdagi kutilgan natijasini berishi uchun jamiyatdagi sotsiologik omillar ulkan ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ayrim davlatlar ma’muriy hududlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi va xavfsizligini ta’minlash faoliyati turli yo’llar, usullar bilan ta’minlanadi[1]. Ushbu sohada har bir davlat o’ziga xos ilg’or tajribaga ega bo’lib, ularni o’rganish hamda yurtimiz jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash tizimiga tatbiq etish bugunning dolzarb talablaridan biridir.

D.V.Vasilevning fikricha, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda xorij tajribasini o’rganish jamiyatni rivojlantirishning muhim yo’nalishlari va yo’llarini belgilab olish, bashariyatning uzoq tarixiy taraqqiyoti jarayonidagi yanglishuvlar va xato yondashuvlarga qayta yo’l qo’yilishining oldini olish imkonini beradi[2].

Tadqiqotlar shuni ko’rsatmoqdaki, huquqni muhofaza qilish faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalarini tadqiq etish barcha davrlarda, ayniqsa, qonun ustuvorligini, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash muammolarni hal etish jamiyatning asosiy ehtiyoji va talabiga aylanib ulgurgan bugungi kunda ham huquqshunoslar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo’lib qolmoqda.

Shuningdek, ushbu muammo bo’yicha rivojlangan mamlakatlar huquqshunos olimlari ham o’zlarining ilmiy izlanishlari natijasida erishilgan yutuqlarini qonunchilikka tatbiq etish yo’li bilan aholi o’rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo’yicha ko’plab chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida: “Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi sabablar va ularning sodir etilishiga imkon bergan yoki osonlashtirgan sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga, shuningdek, fuqarolarning huquqiy ongini rivojlantirish va huquqiy bilimini oshirishga yo’naltirilgan”[3].

Rossiya Federatsiyasida mamlakat Konstitutsiyasining 72-moddasiga muvofiq, qonuniylik, huquq-tartibot, jamoat xavfsizligini ta’minlash, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasini Rossiya Federatsiyasi va subyektlarining birgalikdagi boshqaruvida amalga oshiriladi. Ijroiya hokimiyatiga rahbarlikni amalga oshirish asosida Prezident va hukumat qonuniylik, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, mulkchilik va jamoat tartibini qo’riqlash bo’yicha tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlarini amalga oshiradi, shuningdek jinoiy-huquqiy siyosatning asosiy yo’nalishlari, resurslarini belgilaydi[4].

Rossiya Federatsiyasi IIV federatsiya tarkibiga kiruvchi respublikalar IIVlari, o’lkalar, viloyatlar va federal darajadagi shaharlar ichki ishlar bosh boshqarmalari,

boshqarmalari va bo'limlari, avtonom viloyatlar va okruglar, tuman va shahar ichki ishlar organlari, temir yo'l, havo va suv transporti tarmoq ichki ishlar organlari, ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari, ichki qo'shinlar hamda tizimga kiruvchi boshqa tarkibiy tuzilmalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi[5].

Rossiya Federatsiyasining 2011-yil 7-fevraldagi "Politsiya to'g'risida"gi qonunida belgilanganidek, politsiya ijroiya hokimiyati federal organining ichki ishlar sohasidagi yagona markazlashgan tizimi tarkibiy qismi hisoblanib, faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- shaxs, jamiyat va davlatni huquqqa xilof tajovuzlardan himoya qilish;
- jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va fosh etish;
- jinoyatlarni aniqlash va ochish, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruvni amalga oshirish;
- qidiruvni tashkil etish; ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish va ma'muriy jazolarni ijro etish;
- jamoat joylarida huquq-tartibotni ta'minlash;
- yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash;
- qurol savdosi sohasidagi Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- xususiy detektivlik va qo'riqlash faoliyati sohasidagi Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- mulk va obyektlarni qo'riqlash;
- jabrlanuvchilar, guvohlar va jinoyatga oid sud ishi yurituvdagi boshqa ishtirokchilar, sudyalalar, prokurorlar, tergovchilar va huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining boshqa mansabdor shaxslari hamda qo'riqlanishi talab etiladigan boshqa shaxslarni davlat himoyasi bilan ta'minlash;
- ekspert-kriminalistik faoliyatni amalga oshirish[6].

Buyuk Britaniyada patrullik naryadlari xizmat faoliyati mobaynida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishni amalga oshirish, yo'l harakatini tartibga soladilar va nazorat qiladilar, yashiringan jinoyatchilarni qidirib topishda ishtirok etadilar, boshqa tarmoq xizmatlari uchun kerakli ma'lumotlarni to'playdilar hamda turli favqulodda vaziyatlarda fuqarolarga yordam ko'rsatadilar. Rivojlangan mamlakatlar politsiyasining patrullik xizmatlariga zamonaviy texnik ta'minot xos bo'lib, bu naryadlarning yuqori safarbarligiga erishish imkonini beradi. Masalan, Londonning u chekka provinsiyasidan bu chekkadagi provinsiyasigacha jinoyat haqida xabar tushgach, patrul bo'linmasi dispetcherlik punktidan o'rtacha 2,5–3 minut ichida voqea joyiga yetib borishga qodir. Patrul naryadlari axborot ta'minotiga ham katta e'tibor qaratilgan. Ular aloqa vositalari va komp'yuter texnikasi bilan yaxshi qurollangani bois kerakli ma'lumotni tezda axborot markazining ma'lumotlar bazasidan olish imkoniyati mavjud. Keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlarda politsiyaning qarshi kurash, **huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishni amalga oshirish**, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini yengillashtirish maqsadida katta ko'chalar va posyolkalarda videokuzatuv uskunalari o'rnatila boshlandi. Mazkur kameralarda olingan huquqbuzarlik yoki jinoyatga oid suratlar orqali ish olib borish politsiyaga

katta qulaylik yaratadi. Xorijiy davlatlarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishni amalga oshirish, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda keng qo'llaniladigan usullardan yana biri – huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, “muammoni hal qilish” bo'lib, u politsiya tomonidan qo'llaniladigan zamonaviy usullarni o'z ichiga olgan yangi ish usuli hisoblanadi[7].

Qirg'iziston Respublikasi qonunchiligida “huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi respublikada huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini bartaraf etish (neytrallashtirish)ga yo'naltirilgan”[8].

Belarus Respublikasi qonunchiligida “huquqbuzarliklar profilaktikasi huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha faoliyatining asoslari to'g'risida”gi Qonun va boshqa qonun hujjatlarga muvofiq fuqarolarning huquqqa xilof haraqatlarini sodir etishga yo'l qo'ymaslik maqsadida ijtimoiy jarayon va ularning sodir etilishiga imkon bergan sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish faoliyati”[9].

Har bitta davlatning ushbu sohadagi qonun hujjatlarini va huquqshunos olimlarining fikrlarini tahlil qiladigan bo'lsak, barchasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga umumiy ta'rif berib o'tilganligining guvohi bulamiz. Ya'ni ushbu huquqbuzarliklar profilaktikasining qanday amalga oshirilishi, oldiga qo'ygan maqsadlari, vazifalari, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi yuzasidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning protsessual huquqda o'z aksini qay tarzda topishi va kelajakda qanday natijalarga erishilishi to'liq ko'rsatib o'tilmagan.

Qiyosiy-huquqiy tahlil shundan dalolat beradiki, o'rganilgan xorijiy davlatlar qonunchiligida huquqbuzarliklar tushunchasiga berilgan ta'riflar milliy qonunchilikdagi ta'rifga mazmunan mos keladi.

Jumladan, huquqbuzarlik tushunchasi:

- Rossiya Federatsiyasining “*Rossiya Federatsiyasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining asoslari to'g'risida*”gi 2016-yil 23-iyundagi Federal qonunida “ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo'luvchi g'ayrihuquqiy qilmish (*harakat, harakatsizlik*) ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat”;

- Belarus Respublikasining “*Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha faoliyatning asoslari to'g'risida*”gi 2014-yil 4-yanvardagi qonunida “sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan, aybli, g'ayrihuquqiy harakat (*harakatsizlik*)” sifatida ta'riflangan.

Ahamiyat berish joizki, huquqbuzarlik tushunchasini ta'riflashda O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi qonunlarida g'ayrihuquqiy qilmish (*harakat yoki harakatsizlik*) tushunchasi, Belarus Respublikasi qonunida g'ayrihuquqiy harakat (*harakatsizlik*) tushunchasi qo'llanilgan.

Fikrimizcha, Belarus Respublikasi qonunidagi ushbu yondashuv qo'llab-quvvatlanishga loyiqdir. O'zbek tilining izohli lug'atiga ko'ra, qilmish tushunchasi “qilingan ish”, “nojo'ya ish”, “harakat”, “faoliyat” ma'nolarini anglatadi. Shunga

asoslangan holda aytish mumkinki, qilmish faqat mexanik harakatda ifodalanadi. Harakatsizlikni qilmish sifatida baholash munozaralidir.

O'tkazilgan tahlillarni umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkin: huquqbuzarlik deganda, sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan, aybli, g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Tadqiqotimiz davomida, O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni va mazkur qonun bilan tartibga solinadigan munosabatlar ta'lili bilan bir qatorda xorijiy davlatlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar ham tahlil qilindi.

Xususan, Rossiya Federatsiyasining 2016-yil 23-iyunda qabul qilingan "Rossiya Federatsiyasida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining asoslari to'g'risida"[10]gi Federal qonunining 2-moddasiga asosan, huquqbuzarliklar profilaktikasi - huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga, shuningdek, huquqbuzarliklar yoki jamiyatga zid xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida shaxslarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, axborot va boshqa xususiyatdagi chora-tadbirlar majmuasi sifatida berilgan.

Rossiya Federatsiyasida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari Prezidenti tomonidan belgilanadi. Rossiya Federatsiyasida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining huquqiy asoslari mamlakat Konstitutsiyasi va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari, xalqaro shartnomalar, federal konstitutsiyaviy qonunlar, 2016-yil 23-iyundagi "Rossiya Federatsiyasida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining asoslari to'g'risida" qonuni va boshqa qonunlar, Prezidentning normativ-huquqiy hujjatlari, Rossiya Federatsiyasi hukumati, federal ijro etuvchi hokimiyat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek Rossiya Federatsiyasi subyektlarining normativ-huquqiy hujjatlari va jinoyatchilik sohasidagi masalalarni tartibga soluvchi mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi[11]. Qonunga muvofiq huquqbuzarliklarning oldini olishning maqsadi shaxs, jamiyat va davlatni noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishdir.

Mazkur qonunga asosan profilaktik tadbirlarning turlari (umumiy va yakka tartibdagi):

1) huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa sabablarni va shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, yo'q qilish (minimallashtirish, zararsizlantirish)ga qaratilgan huquqbuzarliklarning umumiy oldini olish yoki federal, mintaqaviy, mahalliy va idoraviy darajalar, shuningdek fuqarolarning huquqiy ongi darajasini oshirish;

2) ushbu shaxslarning xatti-harakatlarini ijobiy tuzatish, kriminogen faktlarni yo'q qilish yoki zararsizlantirish maqsadida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining subyektlari tomonidan shaxsning jinoyatgacha bo'lgan xatti-harakatlari faktlari asosida amalga oshiriladigan huquqbuzarliklarning individual profilaktikasi.

Qonunga ko'ra profilaktik ta'sir ko'rsatish shakllari quyidagilar[12]:

- Huquqiy ma'rifat va huquqiy axborot berish - fuqarolarga qonunlar, huquq va majburiyatlar haqida ma'lumot berish.

- Profilaktik suhbat - shaxs bilan huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan shaxsiy muloqot.

- Rasmiy ogohlantirish - huquqbuzarlik yoki jamiyatga zid xatti-harakatlarni davom ettirishga yo'l qo'yib bo'lmazligi to'g'risida e'lon.

- Profilaktik hisobga olish - huquqbuzarlikka moyil shaxslarni ro'yxatga olish va kuzatib borish.

- Taqdimnoma kiritish - huquqbuzarlikka olib keladigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar.

- Profilaktik nazorat - shaxslarning xatti-harakatlarini kuzatib, huquqbuzarliklar sodir bo'lishini oldini olish.

- Ijtimoiy moslashuv - shaxslarni jamiyatga qo'shib, ijtimoiy muhitga moslashtirish.

- Qayta ijtimoiylashuv (resotsializatsiya) - huquqbuzarlikka moyil shaxslarning ijtimoiy faoliyatini tiklash.

- Ijtimoiy reabilitatsiya - huquqbuzarlikdan jabr ko'rgan shaxslarning jamiyatdagi faoliyatini tiklash va qo'llab-quvvatlash.

- Yordam ko'rsatish - huquqbuzarlikdan jabr ko'rgan yoki shunday xavf ostida bo'lgan shaxslarga yordam berish.

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda profilaktika tizimi subyektlari tomonidan qo'llaniladigan huquqbuzarliklarning individual profilaktikasining boshqa choralari kabilar kiradi.

Belarus Respublikasida huquqbuzarliklarni oldini olish 2014-yil 4-yanvardagi "Huquqbuzarliklari profilaktikasi asoslari to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi[13].

Mazkur qonunning 6-moddasiga asosan huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari: ichki ishlar organlari; prokuratura organlari; davlat xavfsizlik organlari; chegara xizmati organlari; bojxona organlari; davlat muhofazasi organi; Davlat nazorat qo'mitasi; favqulodda vaziyatlar bo'yicha organlari va bo'limlari; Qurolli Kuchlar, Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari, boshqa davlat harbiy tuzilmalari va harbiylashtirilgan tashkilotlar; mahalliy ijro etuvchi va ma'muriy organlar; Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyat ijroiya qo'mitalarining tarkibiy bo'linmalari; Ta'lim vazirligi; Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari; Adliya vazirligi, viloyat ijroiya qo'mitalarining tarkibiy bo'linmalari, Minsk shahar Ijroiya qo'mitasi, odil sudlov sohasida davlat va hokimiyat vakolatlarini amalga oshiradi; Prezident huzuridagi Hayvonot dunyosi va florani muhofaza qilish davlat inspeksiyasi; davlat ommaviy axborot vositalari tahririyatlari vazifalari yuklatilgan yuridik shaxslar; huquqni muhofaza qilish jamoat punktlari kengashlari; ixtiyoriy otryadlar; jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar.

Huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha tadbirlarni muvofiqlashtirish Belorusiya Respublikasi Bosh prokurori va hududiy va transport

prokuraturalarining bo'ysunuvchi prokurorlari tomonidan, shu jumladan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashlar tomonidan olib boriladi[14].

Germaniyada huquqbuzarliklarni oldini olish **birlamchi, ikkilamchi** va **uchinchi** darajali profilaktikaga ajratiladi[15]. Birlamchi omil huquqbuzarliklarning oldini olishda ijtimoiylik adolat tuyg'usining shakllantirishga muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkilamchi omil politsiya tomonidan amalga oshiriladi vahuquqbuzardan saqlanishning qonuniy vositalari bilan bog'liq. Uchinchi darajali profilaktika – bu huquqbuzarlarni jazolash va qayta ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonida qo'llaniladigan profilaktika choralari va vositalar yig'indisidan iborat.

Germaniya politsiya amaliyotida huquqbuzarliklar ko'pincha himoyasiz jabrlanuvchi yoki obyekt bilan uchrashganda sodir etiladi degan tezis keng targ'ib qilinadi. Shuning uchun profilaktika choralari huquqbuzarga yoki xavfsizlik tizimiga yoki potentsial jabrlanuvchiga (individual, umumiy va jabrlanuvchining profilaktikasi) qaratilgan bo'lishi kerak. Ushbu uchlikda himoya profilaktikasi va uning o'zini o'zi himoya qilishga qaratilgan aholi bilan maqsadli ishlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xuddi shu maqsadda hozirgi kunda ham huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha maslahatlarni bepul tarqatish, radioeshittirishlar va televizion dasturlarda namoyish etish amaliyoti keng tarqalgan.

Xususan, politsiyasi tomonidan "Huquqbuzar politsiyasi maslahat beradi" nomli huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha maxsus dastur mavjud bo'lib, uning asosiy g'oyasi politsiya xodimining jamoatchilik bilan keng aloqasini ta'minlashga xizmat qiladi[16].

Buyuk Britaniyada huquqbuzarliklarni oldini olish uchun minimal standartlari ishlab chiqilgan bo'lib, aholini politsiya bilan hamkorligini oshirish uchun keng qo'llamli maxsus chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, fuqarolarning patrul xizmatida hamda huquqbuzarliklar sodir etilgan joylarda maxsus navbatchilik qilish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Xatto, politsiya ishida ishtirok etish fikrini bildirgan faol aholi vakillari uchun politsiya transport vositalarida harakatlanish, politsiya kiyimlarida bo'lish (nishonlar va xizmat lavozimlarisiz xolda), radioaloqa vositalaridan foydalanish, tayoqchalar, kishan va hatto qurollarni olib yurish huquqlariga ega bo'lish amaliyoti ham yo'lga qo'yilgan. Mazkur huquqlarning berilishi ortida politsiya ishida ishtirok etuvchi fuqarolar tomonidan huquqbuzarliklarni oldini olishda xavfsizligini ta'minlash bilan bir qatorda, ularni maxsus organlar zimmasidagi ma'suliyat hissini uyg'otishga xizmat qilidi deb baholanib, hukumat tomonidan bunday chora-tadbirlarning barchasi jamiyat va davlat tomonidan qo'llab kelinmoqda[17].

Amerika Qo'shma Shtatlarida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish choralarining uchta modeli mavjud: *davlat muassasasi modeli, individual xavfsizlik modeli va atrof muhitga ta'sir qilish modeli*.

